

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI



THE CENTRAL BANK
OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN

BANK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH HUQUQINI BERUVCHI

83 – raqamli

LITSENZIYA

2025 yil "28" fevral

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruving 2025 yil "28" fevraldag'i 6/6-sonli qaroriga muvofiq

"AVO bank" aksiyadorlik jamiyati

(100060, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29A – uy)

quyidagi moliyaviy operatsiyalar amalga oshirish huquqiga ega:

1. Pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;
2. To'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;
3. Jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;
4. Kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatiligi sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;
5. Chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;
6. Jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha pul mablag'larini va boshqa mol-mulkni ishonchli boshqarish;
7. Inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;
8. Uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;
9. Uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring);
10. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;
11. Affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'limgan) hisobvaraqlarini yuritish;
12. Qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;
13. Hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
14. Hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;
15. Lizing berish;
16. Qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;
17. Moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;
18. Aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;
19. Elektron pullarni chiqarish, ularidan foydalanish va to'lash;
20. Bank kartalarini berish va to'lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya instituti bilan birgalikda xizmat ko'rsatish;
21. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha xizmatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bilan elektron axborot almashish orqali ko'rsatish.

Ushbu litsenziya cheklanmagan muddatga berildi.

Yuqorida keltirilgan operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan tartib va iqtisodiy me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu litsenziya shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi hamda O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda uni bekor qilishi mumkin.

Bank 2017 yil "2" iyulda 83 – raqam ostida Banklarni ro'yxatga olish davlat reyestriga kiritildi(gan).

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy bankining vakolatli shaxsi

N. Saydullayev

